

IJTIMOYIY TARMOQLARNING NUTQIMIZ RIVOJIGA QO'SHAYOTGAN HISSASI

Sultonqulova Dildoraxon Sotvoldi qizi

SamDCHTI 2-bosqich talabasi

Ilmiy raxbar: Sh.O.Mamayoqubova

Annotatsiya: *Ushbu maqolaning maqsadi ijtimoiy tarmoqlarning hozirgi trendlarini namoyish etish, shuningdek, nutqni o'rganish va rivojlantirish jarayonida ijtimoiy tarmoqlarning o'рни haqida atroflicha ma'lumot beradi. Bundan tashqari, nutq mahoratini oshirish uchun turli xil ijtimoiy ilovalar va aqliy o'yinlar mavjud.*

Kalit so'zlar: *onlayn kurslar, moslashuvchanlikni oshirish, raqamli savodxonlik, mahalliy aholi bilan muloqot qilish.*

O'qituvchilik kasbi bilan tanish bo'lgan yoki bevosita bu kasbdan xabardor bo'lgan har bir kishi o'qituvchilar duch keladigan jiddiy bosim va talablarni biladi: ko'p vaqt talab qiladigan ma'muriy vazifalar, sifatli o'quv materiallarini topish qiyinligi, har xil o'quvchilarning qobiliyat darajalari va o'rganish uslublariga ko'ra farqlash zaruriyati, shu bilan birgalikda, doimo talabalar va ish beruvchilardan kutilayotgan talablarni qondirish talab qilinadi. Albatta til o'qituvchilari ham bundan mustasno emas. Samaradorlikni oshirish va vaqtni tejash uchun amalga oshirilishi mumkin bo'lgan har qanday strategiya mamnuniyat bilan qabul qilinishi kerak. Qolaversa, til o'rganishda eskicha bo'lgan usullardan foydalanish; grammatik qoidalarni yodlashva darsliklardan shunchaki nusxa olish kabi eskicha yondashuvlar hozirgi biz yashab ta'lim olayotgan XXI asr uchun eng samarali yoki o'qish uchun ilhomlantiruvchi uslublar emasligi hech shubhasiz tan olinadi. Bugungi kunni biz ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur etmaymiz va ulardan kundalik hayotimizda foydalanamiz. Ular haqiqatdan ham vaqt va pulni tejashimiz uchun foydalidir.

Hozir siz og'zaki nutq mahoratini oshirish uchun ijtimoiy tarmoqlarning asosiy afzalliklari bilan tanishasiz .

1. Onlayn kurslar orqali - Siz o'z mahoratingizni tayyorlash va rivojlantirish uchun ko'plab onlayn kurslarga duch kelishingiz mumkin. Ko'p holatlarda ularning aksariyati bepul, shuningdek, ular haqiqatdan ham bilimingizni ma'lum darajaga chiqarish uchun yetarli bo'lishi mumkin. Siz o'zingiz hohlagan vaqtda ushbu kurslarda qatnasha olasiz va yurish, taksi uchun ortiqcha vaqt hamda pul sarflamaymiz. Eng muhimi, agar tushunishda muammo bo'lsa, ushbu darslarni darslarni qayta-qayta tomosha qilishingiz

mumkin. Bundan tashqari siz uyda ko'proq mashq qilishingiz mumkin. Qizig'i shundaki, xorijiy tillarni o'rganish bo'yicha onlayn kurslar ishtirokchilari matematika va tabiatshunoslik kabi boshqa fanlar bo'yicha o'quvchilarga nisbatan pastroq fikr bildirishgan. Tadqiqot natijalari chet tili darslarini onlayn o'qitishga xos bo'lgan qiyinchiliklarni, shuningdek, o'qituvchilar va talabalarining ushbu qiyinchiliklarni qanday yengish mumkinligi haqidagi tavsiyalarni tavsiflaydi.

2. Mahalliy aholi bilan muloqot qilish - Siz chet elliklar bilan ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqot qilasiz va ular bilan do'stlashasiz. Bunday qilish orqali ularning madaniyati, kundalik hayot tarzlari, urf-odatlarini haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'la olasiz, shuningdek, siz haqiqiy ona tili chet tili bo'lgan chet el fuqarosi bilan muloqot qilish orqali og'zaki nutqingizni rivojlantirasiz. Siz bu orqali so'zlarni va hajmi katta bo'lgan gaplarni to'g'ri va ravon talaffuz qilishni o'rgana olasiz.

Atigina 18.9% talabalar bevosita o'qituvchi va o'quvchi bilan yuzma yuz o'tiladigan darslarga qaraganda ko'proq onlayn o'qiyotganliklarini ta'kidlashdi.

3. Moslashuvchanlikni oshirish - Texnologiya individual o'quvchilarning ehtiyojlariga osongina moslashtiradi. Bunga qo'shimcha qiladigan bo'lsak, siz ijtimoiy tarmoqlar orqali oldingi imtihonlar haqida ma'lumotlarni ololasiz.

4. Raqamli savodxonlikni rivojlantirish - Ta'lim texnologiyalari raqamli aloqa, hamkorlik va o'z o'zini o'rganishni osonlashtirishi mumkin - bularning barchasi kelajakdagi akademik va professional muvaffaqiyat uchun ko'nikmalarning mustahkam poydevorini qo'yadi. Talabalar hayotlarining boshidanoq texnologiyalardan foydalanishi orqali o'zlarini qulay his qiladi.

Talabalar chet tiliga xos bo'lgan fonetikani ko'rib chiqish uchun texnologiyaga tayanishi mumkin. Chet tilini o'rganishda turli xil audio yozuvlaridan foydalanish, video, multimedia va mobil texnologiyalardan foydalanishning asosiy afzalliklaridan biri talaffuz va tinglab tushunishni o'zlashtirish uchun fonetikani kerak bo'lganda ko'p marta takrorlash imkoniyatiga ega bo'lishdir. Bundan tashqari talabalar yetarlicha dasturiy ta'minot bilan ta'minlanganda, talabalar o'zlarining ovozlari yozib olishlari va talaffuzlarini, ravonliklarini o'qituvchilarga taqdim etganlarida solishtirishlari mumkin. Kompyuterlar, notebooklar, mobil telefonlar, global aloqa tizimi, internet va boshqa aloqa tizimlari kabi texnologiyalar, ya'ni video va audio konferensiyalar, veb-ko'rsatuvlar, suhbat xonalari kabi elektron aloqa vositalari til o'qitishning ajralmas qismiga aylandi va ulardan keng foydalanish yo'liga o'tildi.

Eng muhimi, bugungi kunda og'zaki nutq mahoratini oshirish uchun ko'plab ilovalar mavjud. Ayniqsa, til bilish darajasini tekshiruvchi ijovalar chet

tilini bilish darajisini tez va sifatli aniqlashda yordam beradi. Hech shubhasiz, texnologiyalardan foydalanish ingliz tilini o'rgatish va o'rganishga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Nafaqat ingliz balkim boshqa chet tillari uchun ham juda foydali bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://www.researchgate.net/publication/349319007_THE_INTEGRATION_OF_TECHNOLOGY_INTO_FOREIGN_LANGUAGE_TEACHING
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/the-role-of-modern-technologies-in-teaching>
foreignlanguages#:~:text=The%20use%20of%20technology%20in,learning%2C%20as%20well%20as%20the
3. <https://www.jstor.org/stable/26819613>
4. <https://www.newsdle.com/blog/technology-helps-teachers>
5. <https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1284613.pdf>
6. <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC8475434/>
7. <https://study.com/academy/lesson/technology-in-the-foreign-language-classroom.html>
8. <https://link.springer.com/article/10.1007/s43545-021-00254-y>
9. <https://scholar.harvard.edu/eherrera/blog/emerging-mobile-technologies-foreign-language-learning>
10. <https://www.scientificworldinfo.com/2019/11/importance-of-technology-in-our-daily-life.html>